

MUZRABOT ATAMASI TARIXIGA YUZLANIB

Chubalova Gavxar

Termiz arxeologiya muzeyi

katta ilmiy xodimi

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:03.07.2025

Revised: 04.07.2025

Accepted:05.07.2025

KALIT SO'ZLAR:

Muzrabot, toponim,
atama tarixi,
etimologiya, og'zaki
ijod, mahalliy tarix,
Surxondaryo

Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatidagi Muzrabot atamasining tarixiy ildizlari, mazmun-mohiyati va shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Atamaning etimologik manbai, uning qadimiy yozma manbalar va xalq og'zaki ijodidagi ifodalanishi o'rganiladi. Muzrabot nomining paydo bo'lishi bilan bog'liq afsona, rivoyat va tarixiy voqealarga e'tibor qaratilib, uning hududiy, ijtimoiy va madaniy mazmuni ochib beriladi. Tadqiqot natijalari Muzrabotning toponimik o'rganilishiga hissa qo'shadi hamda mahalliy joy nomlarining xalq hayoti va tarixidagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Amudaryoning o'ng qirg'og'idan janubi-g'arbda va shimoli-g'arbda Ko'hitang (Ko'h va tan (tan) tog'li yurt)¹⁰¹ tog'lariga tutash Muzrabot voxasi ham muhim tarixiy joylar sirasiga kiradi. Vohaning tarixiy joylari xaqidagi eng dastlabki yozma ma'lumotlar makedo niyalik Aleksandr boshchiligidagi qo'shinning o'ng qirg'oq Ukuz-Oksga yurishi davriga oid bo'lsa,¹⁰² bu hududda sug'orma dexqonchilik madaniyati (arxeologik adabiyotlarda "Sopolli madaniyati"ning shakllanishi miloddan avvalgi II ming yillik boshlarida yuz bergan (yangi ma'lumotlarga ko'ra miloddan avvalgi III ming yillik oxirida).¹⁰³ Voxada miloddan avvalgi I ming yillikda va undan so'ng yuz bergan tarixiy va madaniy o'zgarishlar jarayonidan bu hududda mavjud miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalariga oid

¹⁰¹ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати – Т. Ўқитувчи 1988. – Б. 220

¹⁰² Ртвладзе Э. В. К локализации греческой переправы на Оксе. Вестник древней истории, 1977, – С. 182-187

¹⁰³ Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Т., Фан. – С. 232.

Kuchuktepa, Pshaktepa,¹⁰⁴ Oqtoshdagi G'oz yodgorligi¹⁰⁵ Kampirtepa va Shurobqo'rg'on singari yodgorliklar darak beradi. Vohaning ko'p kirrali voqealarga boy tarixi, tabiiyki bu xududning joy nomlarida ham chuqur iz qoldirgan. Bu borada Muzrabot nomining kelib chiqishi va ma'nosining talqini juda muhimdir.

Toponimist olim T.Nafasovning fikricha Muzrabot toponimi eroniy tillarda (Surxon vohasi qadimda Baqtriya -Toxariston ulkasining shimoli- g'arbiy qismini, ya'ni Shimoli-g'arbiy Baktriya -Toxaristonni tashkil etgan va bu o'lkaning qadimgi tillaridan biri baqtriya tili deb atalgan –B.S.) «buzurg-katta, ulkan, buyuk bo'lib, Buzurg rabot – bo'zrabot – Muzrabot-katta rabot» ma'nosini anglatadi.¹⁰⁶ Muzrabot toponimi sharhiga murojaat etgan aksariyat geograf, tarixchi va toponimist olimlar ayni shu sharhni takrorlaydilar.¹⁰⁷

Muzrabot ikki qism Muz va rabot (ravot)dan tarkib topgan. Rabot (ravot) atamasini barcha mutaxassislar karvonsaroy (musofirxona) deb izohlaydilar. O'rta asrlarda Termiz va Chag'oniyon viloyatlarida ko'plab karvonsaroylar faoliyat ko'rsatganligini yozma va arxeologiya ma'lumotlari ham tasdiklaydi. Ibn Halqalga qo'ra, Termiz va Chag'oniyon savdo yo'lida Termizdan olti farsax uzoqlikda joylashgan Sarminjon (Jarminkon) shaharchasida Abul Hasan Moxga tegishla karvonsaroy bo'lib, unda har kuni bir dinorga teng sadaqa non tarqatilgan.¹⁰⁸ Eski Termizning rabot qismida esa karvonsaroy o'rni aniqlangan¹⁰⁹ So'nggi o'rta asrlarga oid bu turdagi inshoot Amudaryoning o'ng qirg'og'ida Termiz-Qobadiyon savdo yo'lida joylashgan, Xotinrabotda xam o'rganilgan¹¹⁰. Bizningcha, Muzrabot atamasi tarkibidagi «Muz» so'zi bevosita «Marzbon» (paxlaviy tilida marzban) nomi bilan bog'liq. Marzbon sosoniylar Eroni davlatida chegara ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxs va lavozim ham ayni shunday yuritilgan.¹¹¹

¹⁰⁴ Шайдуллаев Ш.Б Северная Бактрия в эпоху раннего железного века. – Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2000, – С.126

¹⁰⁵ Чориев З.У, Шайдуллаев Ш.Б Аннаев Т.Ж Ўзбекистон худудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тарақиёти. – Т Янги аср авлоди., 2007, – Б. 31-35.

¹⁰⁶ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли лугати – Т. Ўқитувчи, 1988, – Б.121

¹⁰⁷ Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари., Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005, – Б.131

¹⁰⁸ Камалиддинов Ш.С О средневековых городах области Термеза //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1993, – С. 38.

¹⁰⁹ Рахманов У, Пидиев Ш. Раскопки карван-сарая в рабаде средневекового Термеза //История материальной культуры Узбекистана. 1990, Выпуск 23, с. 60-69

¹¹⁰ Пидиев Ш, Аршавская З Караван – сарай Хатын рабад //Архитектура и строительство Узбекистана. 1986, 2-З, – С. 41

¹¹¹ Колесников А.И О термине “марзбан” в сосанидском Иране //Палестинский сборник, Выпуск 27 (30) Л., 1981, – С. 49-56.

Marzbon + rabot = Marzbonrabot – Marzrabot – Muzrabot. Shunday qilib, Muzrabot atamasi chegara raboti yoki chegaradagi karvonsaroy ma'nosini anglatadi. Bu tarixiy atamaning kelib chiqishi va evolyusiya jarayonini anglamoq uchun vohada yuz bergan tarixiy jarayonni tahlil etamiz.

Miloddan avvalgi III ming yillik oxiridan Amudaryoning ikki qirg'og'ida yashagan aholining daryoning bir qirg'og'idan ikkinchi qirg'og'iga ko'chib o'tish jarayoni muttasil tus olib, miloddan avvalgi I ming yillik o'rtasida Qorasuvning Amudaryoga quyilish joyidagi Sho'robqo'rg'on qishlog'idan bir necha kilometr janubi – g'arbda daryoning o'ng qirg'og'ida kechuv joyini nazorat qiluvchi kal'aga asos solingan. Miloddan avvalgi VI-IV asrlar bilan sanalangan bu qal'a hozirda Sho'rtepa nomi ostida ma'lum. Miloddan avvalgi III ming yillik oxiridan boshlab kechuv sifatida shakllangan bu joy miloddan avvalgi VI asrga kelib kal'a bilan qo'riqlanadigan kechuv joyiga aylangan. Baqtriya o'lkasining poytaxti qadimgi Baqtr (o'rta asrlarda Balx) ro'parasida joylashgan bu kechuv orqali o'tgan karvonlar Boysun-tog'idagi «Temir darvoza» orqali Maroqand (Samarqand) tomon yo'l olganlar. Miloddan avvalgi VI asrda ya'ni Baqtriya o'lkasining ahamoniylar Eroni tomonidan bosib olingandan so'ng to miloddan avvalgi IV asrning oxiriga qadar Sho'rob qishlog'i yaqinidagi Sho'rtepa qal'a sifatida muntazam mavjud bo'lgan. Miloddan avvalgi IV asrning to'rtinchi choragida extimolki miloddan avvalgi 329-327 yilllar oralig'ida Sho'rtepadan sharqroqda yana bir yangi qal'a qurilgan. Bu qal'a Yunon-Baqtriya podshologi va Kushon imperiyasi hukmronliklari davrida kengayib umumiy maydoni 4 gektardan iborat shaxar – qal'aga aylangan. Bu yodgorlik fanda hozirda Kampirtepa nomi ostida ma'lum.¹¹²

XX asrning 70 - yillaridan boshlab Kampirtepa o'rnidagi shahar-qal'ada E.V Rtveladze raxbarligida keng ko'lamda arxeologik tadqiqotlar olib borilmoqda.

E.V Rtveladze Kampirtepa yodgorligini antik davr mualliflari tilga olgan Pandaxeyon bilan taqqoslagan.¹¹³ V.V. Bartold, V.F.Minorskiy, E.V Rtveladze va hokazo sharqshunos, arxeolog va tarixchilarning e'tirof etishicha Pandaxeyon- Pandoki- Pardagvi aslida qadimgi yunoncha so'z bulib «mehmonxona» degan degan ma'noni anglatadi. XV asr tarixiy va geografik adabiyotiga esa, Burdog'uy shaklida yetib kelgan. Hofizi Abruning «Geografiya» asarida bu joyning «Burdog'uy» shaklida tilga olinishi buning yaqqol isbotidir.

¹¹² Э.В. Ртвеладзе. К итогам археологических исследований Кампиртепа в 2000 году //Материалы Тохаристанской экспедиции. Археологические исследования Кампиртепа. Выпуск 2. – Т., 2001, – С. 3-12.

¹¹³ Э.В Ртвеладзе «К локализации «греческой» переправы на Оксе». Вестник древней истории. 1977, – С. 182-187.

«Burdog'uy-Jayhun bo'yida, Termizga tutash bo'lgan mavze. Ba'zilar, unga Termizdan ancha oldin asos solingan deyishadi. Ayrimlar esa, uni Iskandar qurgan deyilar. «Burdog'uy - yunoncha so'z bo'lib, mexmonxona degan ma'noni anglatadi» va bu nom ham Iskandar zamonida qo'yilgan, degan fikrni aytganlar. Qadimda zimmasiga Jayhunning kechuvidan o'tishini ta'minlash yuklangan kemachilarning boshliqlari Burdog'uyda turganlar. Burdog'uy ushbu daryodan o'tadigan kechuv bo'lgan. Qadimgi podshohlar ul mavzening aholisini daryoning guzarini qo'riqlab turish uchun rag'batlantirib, ularga tarxonlik berganlar. Shu sababdan u yerda aholi ko'paygan, boy-badavlat zodagonlar istiqomat qilgan. U yerga biron-bir musofir kelib qolsa, uni yaxshi kutib olganlar. Tez orada, ul joyning xalqi o'z oliyjanoblighi bilan mashxur bo'ldi. Biror yo'lovchi o'sha yerdan o'tib qolsa, Burdog'uy odamlari har biri uni o'z uyiga olib borishga harakat qilar ekan va hatto bir birlari bilan talashisharkanlar. (Shu bois) Termiz aholosi bilan Burdog'uy aholisi o'rtasida ko'pincha nizo bo'lib turgan.¹¹⁴

E.V.Rtveladze rahbarligida Sho'rtepa, Kampirtepa va Sho'robqo'rg'on yodgorliklarida amalga oshirilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ladiki, Sho'rtepa bu mavzedagi kechuv joyidagi eng dastlabki kal'a, Kampirtepa miloddan avvalgi IV asrning oxirida asos solingan shahar – qal'a ya'ni Pandaxeyon-Pardagvi-Pandoki (mehmonxona) bo'lib, bu shahar-qal'a milodiy II asr oxiriga qadar mavjud bo'lgan.¹¹⁵

Milodiy II-III asrlar oralig'ida Qorasuvning o'ng qirg'og'ida Sho'robqo'rg'on o'rnida kechuv joyi bilan bog'liq Yangi shahar shakllangan.¹¹⁶ Xofiza Abruda tilga olingan «Burdog'uy» ayni shu Sho'robqo'rg'on o'rnida bo'lgan. XVII asr manbalarida xususan Mahmud Ibn Valining «Sirlar dengizi» asarida bu shaharcha «Yorgox», «Yordagu» nomida tilga olingan.¹¹⁷

Shunday qilib, Muzrabot hududida Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan Sho'rob qishlog'idan Qorakamargacha masofada miloddan avvalgi VI asrda shakllangan kechuv

¹¹⁴ Хофиз Абри. География. Форсийдан Омонулла Бўриев таржимаси. //Чағониён тарихи Тошкент Ислон университети. 2002, – Б. 187.

¹¹⁵ Э.В Ртвеладзе К локализации «греческой» переправы на Оксе// Вестник древней истории. 1977, – С. 182-188; Э.В Ртвеладзе Кампиртепа - греческая переправа на Амударье Мозидан садо. 1990, – Б. 12-16; Э.В Ртвеладзе К итогам археологических исследований Кампиртепа в 2000 год //Материалы Тохаристанской экспедиции. Археологические исследования Кампиртепа. Выпуск 2. – Т., 2001, 3-12. Шунингдек қаранг харита. Рис. 3. Эллинистическая крепость Пандохейон (Кампиртепа).

¹¹⁶ Аршавская З.А Э.В Ртвеладзе Хакимов З.А Средневековые памятники Сурхандарьи – Т., Издательство литературы и искусства имени Г.Гуляма, – С. 117-118.

¹¹⁷ Махмуд Ибн Вали. Марс тайн относительно доблостей благородных (география) Введение, перевод, примечание и указание Б. А. Ахмедова. – Т., Фан, 1977, – С. 95.

(Sho'rob keyinchalik Cho'chqaguzar, Qorakamar)lar Baqtriya-Toxariston o'lkasi (o'rta asrlarda Termiz viloyati)ning xalqaro savdo aloqalarida muhim o'rin tutgan. Shu bois Muzrabot toponimi tarkibida "Rabot" (Ravot) – karvonsaroy so'zining mavjudligi tabiiydir.

Makedoniyalik Aleksandr vafotidan so'ng uning ulkan imperiyasi hududida vujudga kelgan Salavkiylar va bundan miloddan avvalgi III asr o'rtalarida ajralib chiqqan Yunon – Baqtriya va Parfiya davlatlari o'rtasida chegara aksariyat hollarda Ko'xitang tog'lari hisoblangan. Davlat chegarasi esa tog'ning har qaysi tomonlari xududi evaziga bu davlatlarning bir- birlariga nisbatan iqtisodiy, siyosiy va harbiy qudratiga bog'liq bo'lgan holda o'zgarib turgan. Miloddan avvalgi II asrning to'rtinchi choragida "Da-Yuechji", ya'ni "Katta Yuechji" (toxar)lar tomonidan Yunon-Baqtriya davlati egallangan. O'z navbatida miloddan avvalgi II asrning to'rtinchi choragi va miloddan avvalgi I asrlar Parfiya davlatining yuksaklikka bo'y cho'zgan davridir. E.V.Rtveladze ta'kidlashicha, Kampirtepa shahar – qal'asining quyi qatlamlarida Parfiya hukmdorlari nomidan zarb etilgan tangalarning uchrashi, Ko'xitang tog'laridan sharqiy tomon Oks-Amudaryo yoqasi Qorasuvga qadar hudud ma'lum bir davr oralig'ida Parfiya davlati tasarrufida bo'lgan. Milodiy I asrga kelib Parfiya va Kushon davlatlari o'rtasidagi chegara Ko'hitang tog'lari hisoblangan. Bu tarixiy jarayonni Ko'hitang tog'lariga tutash Qorakamar ("qora-ulkan, katta" ma'nosida) g'orida kashf etilgan epigrafik manbalar orqali tahlil etish mumkin. 1988 yilda E.V Rtveladze boshchiligida Qorakamar g'orini tadqiq etish jarayonida bu g'or devorlari yuza qismida to'rt tur ya'ni arab, baqtriya, yunon va lotin tillarida bitilgan yozuvlar o'rganilgan¹¹⁸ Muzrabot toponimini «chegara raboti» deb talqin etishga moyil bo'lgan yozma manbalardan biri Qorakamar g'orida kashf etilgan lotin yozuvlaridir.

Yu.G Vinogradov va bevosita Qorakamarda bu yozuvlarni o'rgangan Yu.B Ustinova bir lotin so'zini "XV Apollanariy" legioni deb o'qigan. Yana bir lotin yozuvida "Gay Reks" va yunon yozuvida "Rip" nomi qayd etilgan. Yu.B Ustinovanning sharhlashicha XV Apollanariy legioni milodiy 62 yilda ya'ni triumvirat davrida tuzilgan bo'lib Pannoniyadan Armaniston hududiga jo'natilgan.¹¹⁹ Tarixiy manbalardan ma'lumki, bu davrda Rim imperiyasi Kavkazorti mamlakatlariga qadar o'z xukumronligini o'rnatgan bo'lib, bu hudud uchun ikki qudratli davlat, ya'ni Rim imperiyasi va Parfiya o'rtasida tinimsiz

¹¹⁸ Ртвеладзе Э.В. Из недавних открытий "Узбекистан"ской искусствоведческой экспедиции в Северной Бактрии - Тохаристане //Вестник древней истории. 1990,4, – С. 140-145

¹¹⁹ Устинова Ю.Б Наскальные латинские и греческие надписи из Кара-камара Вестник древней истории. 1990,4, – С. 145-147

urushlar bo'lib turgan. Yu.B. Ustinovning ta'kidlashicha, milodiy 66 yilga qadar XV Apollanariy legioni Armanistonda bo'lgan. Shu yilning kuzida rimliklar Armaniston yerlari uchun kurashda parfiyaliklardan mag'lubiyatga uchragan va oqibatda parfyanlar ko'plab rimliklarni asirga olganlar. Ayni shu asirga olingan XV Apollanariy legioni askarlarining bir guruhi yoki ba'zi birlari Parfiya davlatining sharqiy chegaralarini qo'riqlash uchun Qorakamar g'origa birkirib qo'yilgan¹²⁰. Bu kabi epigrafik manbalar Muzrabot nomini «Chegara raboti» deb talqin etishga yana bir bor ishoradir. Kushon podsholigining taniqli hukmdori Kanishka I davrida, milodiy II asrning birinchi choragi yoki yarmi (yoki xronologik davrlashga ko'ra «Buyuk kushon davri») bu ikki davlat o'rtasidagi chegara Qo'hitang tog'larining janubiy va janubi-g'arbiy tarafiga ko'chgan. Hozirgi Chorjo'y o'rta asrlarda Amulga qadar hududlar Kushon davlatining eng yuksalgan davrida uning siyosiy va madaniy ta'sirida bo'lgan. Parfiyaning qadimiy o'lkalaridan biri Marg'iyona (Murg'ob daryosi havzasidagi qadimiy o'lka, Avestoda Mouri, Margush, Marg'iyona. Marg'-ko'kalamzor, maysazor, ko'kalamzor o'lka) markazi Marvga buddaviylik dinining yoyilishi, Kushon podsholari nomidan zarb etilgan tangalarning mavjud bo'lishi ayni shu siyosiy jarayon tufayli yuz bergan. Xullas, Muzrabot asrlar davomida O'rta Osiyo tarixiy – madaniy o'lkalari va shaharlari xalqaro savdosida muhim o'rin egallab kelgan.

Adabiyotlar

1. Нафасов Т. О'збекистон топонимларининг изоҳли луг'ати – Т. О'қитувчи 1988. – Б. 220
2. Ртвладзе Э.В К локализатсии греческой переправы на Оксе. Вестник древней истории, 1977, – С. 182-187
3. Аскарлов А. Древнеземледельческау култура эпохи бронзы уига Узбекистана. – Т., Фан. – С. 232.
4. Шайдуллаев Ш.Б Севернауа Бактриуа в эпоху раннего железного века. – Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2000, – С.126
5. Чориев З.У, Шайдуллаев Ш.Б Аннаев Т.Ж О'збекистон худудида ёзувнинг пайдо бо'лиши ва тараккиёти. – Т Ўанги аср авлоди., 2007, – Б. 31-35.
6. Нафасов Т. О'збекистон топонимларининг изоҳли луг'ати – Т. О'қитувчи, 1988, – Б.121
7. Қораев С. О'збекистон вилоятлари топонимлари., О'збекистон миллий энциклопедиуаси, 2005, – Б.131

¹²⁰ Устинова Ю.Б Наскальные латинские и греческие надписи из Кара-камара //Вестник древней истории. 1990,4, – С. -147

8. Камалиддинов Ш.С О средневековых городах области Термеза //О‘збекитонда ижтимоий фанлар. 1993, – С. 38.
9. Рахманов У, Пидаев Ш. Раскопки карван-сарауа в рабаде средневекового Термеза //Историуа материальной културуа Узбекистана. 1990, Выпуск 23, с. 60-69
10. Пидаев Ш, Аршавскауа З Караван – сарай Хатын рабад //Архитектура и строителство Узбекистана. 1986, 2-3, – С. 41
11. Колесников А.И О термине “марзбан” в сосанидском Иране //Палестинский сборник, Выпуск 27 (30) Л., 1981, – С. 49-56.
12. Э.В. Ртвеладзе. К итогам археологических исследований Кампиртепа в 2000 году //Материалы Тохаристанской экспедиции. Археологические исследованиуа Кампиртепа. Выпуск 2. – Т., 2001, – С. 3-12.
13. Э.В Ртвеладзе «К локализатсии «греческой» переправы на Оксе». Вестник древней истории. 1977, – С. 182-187.
14. Нофиз Абру. Географиуа. Форсийдан Омонулла Бо‘риев таржимаси. //Чаг‘ониён тарихи Тошкент Ислон университети. 2002, – Б. 187.
- 15.¹ Э.В Ртвеладзе К локализатсии «греческой» переправы на Оксе// Вестник древней истории. 1977, – С. 182-188; Э.В Ртвеладзе Кампиртепа- греческауа переправа на Амударе Мозидан садо. 1990, – Б. 12-16; Э.В Ртвеладзе К итогам археологических исследований Кампиртепа в 2000 год //Материалы Тохаристанской экспедиции. Археологические исследованиуа Кампиртепа. Выпуск 2. – Т., 2001, 3-12. Шунингдек қаранг харита. Рис. 3. Эллинистичекауа крепост Пандохейон (Кампиртепа) .
16. Аршавскауа З.А Э.В Ртвеладзе Хакимов З.А Средневековге памуатники Сурхандари – Т., Издательство литературы и искусства имени Г.Гулуама, – С. 117-118.
17. Махмуд Ибн Вали. Марс тайн относительно доблостей благородых (географиуа) Введение, перевод, примичание и указание Б. А. Ахмедова. – Т., Фан, 1977, – С. 95.
18. Ртвеладзе Э.В. Из недавних открытий "Узбекистан"ской искуствоведческой экпедиции в Северной Бактрии - Тохаристане //Вестник древней истории. 1990, 4, – С. 140-145
19. Устинова Ю.Б Наскальные латинские и греческие надписи из Кара-камара Вестник древней истории. 1990,4, – С. 145-147
20. Устинова Ю.Б Наскальные латинские и греческие надписи из Кара-камара //Вестник древней истории. 1990,4, – С. -147